www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

SAMARALI RAXBARLIKKA XOS XISLATLAR

Toshboyeva Hulkar

Norboyev Laziz

Davurov Umidbek

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari

Kalit so'zlar: Rahbar, samara, shaxsiylik, psixologik, fazilatlar, nutq , notiqlik san'ati, imidj, samimiy nigoh, xodimlar.

Annotatsiya: Maqolada asosan samarali rahbarlikka hos fazilatlar va rahbar ish faoliyatida hodimlar bilan qay tartibda ish olib borishi shuningdek rahbar qanday imidjga ega bo'lishi t'grisida fikr muloxazalar keltirilgan.

Key words: Leader, effectiveness, personality, psychological, qualities, speech, public speaking, image, sincere look, employees.

Annotation: The article mainly presents the qualities of effective leadership and the manner in which a leader should work with employees, as well as the image of a leader.

Biz hammamiz ishlaymiz va bizni kim olib borishiga befarq bo'lmaymiz. Ushbu maqola nafaqat umumiy rahbarlik xaqida balki samarali rahbar qanday bo'lishi haqida yozilgan.

O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy taxlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida rahbar kadr qanday bo'lishi kerakligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Rahbar tashqi tomondan tayinlanadi tegishli vakolatlarga ega bo'ladi, sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega. Guruhlardagi ijtimoiy tasir munosabatlarining malum bir bo'ysuninsh paytiga xos bo'lgan rasmiy xodisalar rahbar orqali amalga oshiriladi.

Yetakchilk bu guruh azolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib tashkil etuvchi shaxs-rahbar xisoblanadi. Rahbar shaxs maqsad va vazilalarni yaxwi bilishi lozim, javobgarlikdan qochmaydigan, tashkilotga yordam beradigan bo'lishi lozim ana shunday masuliyatlarni bo'ynigabolgan rahbar samarali ish tartibini yo'lga qo'ya oladi. Shu bilan birgalikda rahbarda imidj birlamchi o'rinlarda bo'lishi kerak. Imidj rahbarning shaxsiy va kasbiy sifatlari bilan bog'liq. Dastlab siz imidj uchun ishlaysiz, so'ng imidj siz uchun ishlaydi.

-Mimika (yuz mushaklarining ma'noli harakatlari).

-Imo ishora

-Ovoz tembri(tovushlarning o'ziga xos sifatlari) va kuchi

- ustki kiyimning madaniyati

-Muomila tarzi

-Saramjon sarishtalilik

-O'ziga xos qadam tashlash singari qiziqishlar qadriyatlar kabi komponentlarni o'z ichiga oladi

Bularning barchasini samarali rahbar o'zida shakllantira olishi kerak. Albatta har bir rahbar xodimlarga namuna namuna usuli orqali tasir o'tqaza olishi mumkin bu rahbarlarning

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

barchasidan talab qilinadigan xolat tariqasida qaraladi. Rahbar shaxs libosga ham etiborli bo'lmogi lozim. Libos insonni issiq sovuqdan ximoya qilibgina qolmay uning madaniyatlilk belgisi xamdir sh o'rinda ish kiyim me'yorlari ancha qat'iy bo'lishi lozim. Rahbarlik imidji tashqi ko'rinishi qay tartibda bo'lishi haqida fikrlar yuritdik.Rahbar shaxs har bir xodimga yoki yonidagi insonga nisbatan samimiy nigoh orqali tasir eta olishi ham mumkin.

Nigoh inson aytadigan so'zlarning tasirchanligini 25 foizga oshiradi. Shu sababli har bir rahbar xodimlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishda nigohga ham e'tiborli bo'lishi lozim.

Notiqlik- rahbarning maruza qilayotganda eng kuchli tasir qurolidir.

Rahbar ifodali nutqning 10 qoidasiga amal qilishi lozim.

1.Mavzu mohiyatini chuqur biling

2.Xodimlarga hurmat bilan munosabatda bo'ling

3.Sòzga urǵuni manteqan tòǵri qòyen gapirishdan avval bir tòhtamga kelen va imo-ishora mahoratiga ega bòlen.

4. Nuqtda oddiy va ravon sòzlardan foydalaning.

5. Tushinarli aniq va hamma eshitadigan ovozda gapiring .

6. Bir qolipdan siyqasi chiqqan va tilga òrganib qolgan keraksiz sòzlarni iwlatmang .

7. Shaxsiy jozibadorlekdan foydalanmang.

8. Shevada gapirish va tillarni almashtirib ishlatishdan qocheng.

9. Xodimlarni aldamang xaqiqatni notòǵri talqin qilmang.

10. Nutqingizdagi ohangdorligi xodimlarning emotsional xolatiga tasir qilishini unitman.

Darhaqiqat rahbar samarali faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

Ishbilarmonlik fazilatlari yuqori ilmiy texnik va iqtisodiy tayyorgarlik rahbarining va davlat qonunchiligi pedagogika tashkiliy ko'nikmalar sohasidagi bilimlar bilan tavsiflanadi.

Siyosiy fazilatlar uning ijtimoiy va siyosiy faoliyatida xodimlarni boshqarish va xodimlarning mafkuraviy tarbiyasiga bo'lgan etiborda namoyon bo'ladi.

Axloqiy fazilatlar raxbarni axloq insoniylik odob axloq nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Rahbarning shaxsiy fazilatlariga qay'iy talablar qo'yilgan. Lavozimiga qo'yiladigan talablar insonning shaxsiy munosabati va qobiliyatiga mos kelishi mumkin keyin bu faoliyat unga boshqaradigan xodimlarga tegishli. Ammo rahbar etakchilikka intilsa va mavqe intilishga mos kelmasa bu xodimlarning o'z ishlaridan noroziligini namoyon qiladi va uning oqibatlari tanglikni keltirob chiqaradi. Shunday qilib rahbar mamuriy faoliyat yuqori darajadagi tuzilmalarga nisbatan bo'ysunishni va etakchilik qilish ish jarayonini integratsiya qilish qaror qabul qilish qobiliyatini taminlaydigan shaxsiy xususiyatlarini universal to'plamiga asoslanadi.

Samarali rahbar faoliyatining bqholash mezonlarini tanlash oson emas eng umumiy shaklda samaradorlikning barcha mumkin bo'lgan mezonlari ikki sinfga bo'linadi. Psixologiya va psixologiya bo'lmagan.Agar u rahbarlik qilayotgan guruh guruhning samaradorligini sinab

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

o'tirgan psixologik va psixogogik bo'lmagan mezonlar bo'yicha yuqori ko'satkichlarga ega bo'lsa yetarli camarali xisoblanadi.

Rahbarlikda texnik mahoratlarga ega bo'lish qiyin emas. Qiyini- xodimlar bilan to'g'ri ishlash. Shu sababli rahbar har bir hodim bilan ishlayotganda to'g'ri qaror qabul qila olishi xodimla bilan nafaqat rahbar asosida balkim ular bilan yetakchi lider va inson sifatida ham aloqa o'rnata olishi lozim hisoblanadi. Rahbar bo'lib kursida o'tirish oson ammo o'sha kursiga munosib lider rahbar bo'lish qiyin. Xodimlar bilan faqat rahbar asosida muloqot qilgan qahbarlik tashkilotida o'sish bo'lmaydi chunki insonlar texnik robot emas sh sababli ham xodimlar bilan ishlayotgan rahbar psixologiya tarafdan ham malumotlarga ega bo'lishi eng muhimlardan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR / Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari (jdpu.uz)

RAHBAR FAZILATLARI VA USLUBLARI / Rahbarga qo’yiladigan talablar (genderi.org)

YOSH YETAKCHINING RAHBARLIKKA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI / Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar (inlibrary.uz)